

O‘RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN DORI TURLARI TEXNOLOGIYASI FANIDAN MALAKA TEST SINOV TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida dori turlari texnologiyasi talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

- 1.Kukunlar, yig‘malar, eritmalar, suvli ajratmalar tayyorlash texnologiyasi.
- 2.Suspenziyalar, emulsiyalar, linimentlar, pastalar, sham dorilar tayyorlash texnologiyasi.
- 3.Steril dori shakllari, inyeksion dori tulari, ko‘z dori shakllari va bolalar uchun qo‘llaniladigan dori shakllarini tayyorlash texnologiyasi.
- 4.O‘zbekiston Respublikasida farmasevtika xizmatini rivojlantirish va farmatsevtik kadrlarni tayyorlash. Xususiy dorixonada ish yuritish
- 5.Mehnat va mehnat ish haqini hisobga olish. Soliq tizimi va bank operatsiyalari.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1.	Kukunlar, yigʻmalar, eritmalar, suvli ajratmalar tayyorlash texnologiyasi.	Kukunlar tayyorlash texnologiyasi, retsept va uning tuzilishi, yigʻmalarning, eritmalar, standart eritmalar, shilimshiqlar tayyorlash texnologiyasi haqida bilim va amalda qoʻllay olish koʻnikmalarga ega boʻlishi lozim.	20 %	8 ta
2.	Suspenziyalar, emulsiyalar, linimentlar, pastalar, sham dorilar tayyorlash texnologiyasi.	Suspenziyalar, emulsiyalar linimentlar, gomogen va geterogen linimentlar, pastalar, sham dorilar tayyorlash texnologiyalarini, shamcha, sharchalarga retsept yozishi, tayoqchalarga retsept yozish haqida bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishi lozim.	25 %	10 ta
3.	Steril dori shakllari. Inyeksion dori tulari, koʻz dori shakllari va bolalar uchun qoʻllaniladigan dori shakllarini tayyorlash texnologiyasi.	Steril dori shakllarini, aseptik sharoitda tayyorlanadigan dori shakllarini, fiziologik eritmalar tayyorlash, inyeksion dori tulari, koʻz dori shakllari, bolalar uchun qoʻllaniladigan dori shakllarini va antibiotiklar bilan tayyorlanadigan dori shakllarini tayyorlash texnologiyasini, dori shakllarini tayyorlashda uchraydigan nomutanosibliklar, veterinariyada ishlatiladigan dori shakllarini tayyorlashni, korxonalarda tayyorlanadigan dori shakllarini, galen preparatlarini farqlay olishi, organopreparatlar haqida bilim va tahlil qila olishi	20 %	8 ta
4	Oʻzbekiston Respublikasida farmatsevtika xizmatini rivojlantirish va farmatsevtik kadrlarni tayyorlash. Xususiy dorixonada ish yuritish	Oʻzbekiston Respublikasida farmatsevtika xizmatini rivojlantirish va farmatsevtik kadrlarni tayyorlash, xususiy dorixonada ish yuritilish, faoliyatini tashkil qilish, litsenziya berish talablari, omborxonada tovarlar harakatini bilishi, davolash profilaktika muassasasi dorixonasini, shifoxonalararo dorixonalarni, pul mablagʻlarini hisobga olishni, inventarizatsiya oʻtkazish qoidalarini bilishi lozim.	15 %	6 ta
5	Mehnat va mehnat ish haqini hisobga olish.	Mehnat va mehnat ish haqini hisobga olishi, asosiy vositalarni, savdo hajmini, soliq tizimi, bank operatsiyalari, marketing bozorini	20 %	8 ta

	Soliq tizimi va bank operatsiyalari.	o'rganish haqida bilim va qo'llay olish ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.		
--	--------------------------------------	---	--	--

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	25 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	50 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	25 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va

qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko‘rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o‘qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to‘g‘ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1.M.M. Mirolimov "Farmatsevgik texnologiya asoslari" . Toshkent. Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti. 2001-yil.

2.A.Muxamadiyeva “Dori turlari texnologiyasi” Toshkent. Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti.2003y

3.Sh.A.Muxayminova “Dori turlari texnologiyasi” Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi -2025

4.K.S.Muxammadjonova “Dori turlari texnologiyasi” Toshkent. Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti.2012y

5.H.S.Zaynutdinov, Z.Ziyoev “Farmasevtika ishini tashkil qilish va iqtisodiyoti” Toshkent, Ilm ziyo 2016 yil .

6.Z.S. Oxunova,G.A .Madrahimova.”Farmatsevtika ishini tashkil qilish va iqtisodiyoti. “2006 yil.

7.M.A.Yusupov“ Farmatsiya ishini tashkil qilish va iqtisodiyoti” Toshkent, Ilm ziyo 2004 yil

8.U.I.Bo‘stonova “Farmatsiya ishini tashkil qilish va boshqarish” Innovatsion rivojlanish nashriyoti-matbaa uyi- 2025